

BUYUK IPAK YO'LI»NING MARKAZIY OSIYODA IQTISODIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Namangan Davlat Universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

S.IQT-BU-24 talabasi

Yo'ldashev Abdusamadbek

Kirish

Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa davlatlarini bog'lovchi qadimgi savdo yo'li - Buyuk ipak yo'lidir. Bu yo'l orqali asosan ipak eksport qilinganligi sababli «Ipak yo'li» nomi bilan shuhrat qozongan. Bu yo'l m.a. II asrdan to milodiy XV asrgacha, suv yo'llari rivojlanguncha Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda O'rta Yer dengizi mamlakatlari o'rtasidagi savdosotiq va madaniy aloqalarning rivojida muhim rol o'ynagan. Manbalarga qaraganda Sariq dengiz qirg'oqlaridan Xuanxe daryosidagi Sian shahridan boshlangan dastlabki yo'l Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan (Xutan), u yerda ikkiga ajralib, biri shimoli-g'arbga ikkinchisi janubi-sharqqa yo'nalgan. Karvon yo'lining umumiy uzunligi 12 ming chaqirim atrofida bo'lgan. Nemis muarrix K.Rixtgofen 1887-yil ushbu yo'nalishga ilk bor «Buyuk ipak yo'li» degan nisbat beradi va bu ibora muomalaga kiritiladi.

Shimoliy yo'l Turfon orqali Tarim vohasiga va bu yerdan Qashg'ar Dovon (Farg'ona vodiysi) ga borgan. U yerdan So'g'dning markazi Samarqand va Marg'iyona (Marv) ga yo'nalgan. Ipak yo'li Farg'ona vodiysida yana juft tarmoqqa bo'lingan. Janubiy qismi O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoro sari uzaygan. Keyingisi Axxi (Andijon) va Qamchig dovonidan o'tib, Iloq vohasi hamda Toshkent tarafga engan. Demak, qamchiq tarixiy yo'lining uzviy bo'lagi hisoblangan. Bu yo'l Sharq va G'arbni turli jabhalarda bog'lovchi yo'lidir (savdo-sotiq, diplomatiya, madaniyat va boshqalar). Shu karvon yo'l orqali Xitoydan ipak, Xitoyga esa har xil

gazlamalar, gilam va poloslar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar keltirilgan. XV-XVI asrlardan bu yoʻlining ahamiyati ancha pasaydi, ammo Markaziy Osiyo respublikalarining siyosiy mustaqillikka erishuvi tufayli bu yoʻlni yanada jonlantirishga katta ehtiyoj tugʻildi. Xitoy, Qirgʻiziston, Oʻzbekiston, Turkmaniston, Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjon, Qora dengiz orqali Yevropa (Parij, Rotterdam) ga yetkazuvchi yoʻl loyihasi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrda koʻplab taniqli mutafakkirlarimizning asarlari xorijiy davlati kutubxonalaridan topilmoqda va oʻz vatani Oʻzbekistonga qaytarilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, oʻz davrida kitob savdosi Buyuk ipak yoʻlining asosiy faoliyatidan biri boʻlgan hamda bu yerdan chetga koʻplab ilm va sanʼat asarlari chiqarilgan.

Mamlakatimizda qishloq xoʻjaligida paxta yetishtirish va paxtadan olinadigan mahsulot asosiy oʻrinda turgan. Polizchilik (ayniqsa, qovunchilik), bogʻdorchilik (uzum) yaxshi rivojlangan. Agar bizga ipak yetishtirish Xitoydan kirib kelgan boʻlsa, xitoyliklar bizdan zotli otlar sotib olgan, uzum va beda yetishtirishni oʻrganishgan. Tarixiy maʼlumotlarga qaraganda bir karvonda 500-1000 tagacha odam, ot, tuya, boshqa ulovlar, savdogarlar bilan birga diplomatlar, elchilar, hajga boruvchilar, harbiy qoʻriqchilar boʻlgan. Butun yoʻl boshidan-oxirigacha 120-150 kun davomida bosib oʻtilgan. Oʻrta Osiyo Yevropani Osiyo bilan bogʻlovchi yirik moddiy-madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi.

Osiyoda va Yevropadagi tovarlarga boʻlgan talab va taklifni (bozorning asosiy unsurlarini) yaxshi bilmay turib uzoq va xatarli yoʻlga chiqish mumkinmidi, katta karvonlarni togʻ, toshlardan, qum choʻllardan olib oʻtish osonmidi, buning uchun maʼlum qoidalarga, amallarga tayanib ish koʻrish kerak boʻldi. Yevropaga qancha va qaysi tovarlarni olib borish, u yerdan nima olib qaytish, karvon yoʻlidagi davlatlar, xalqlar talab-etijoyini yaxshi bilish talab etilgan. Oqibatda turli bilim sohalari, matematika (al-jabr), geometriya (handasa), astronomiya (falakiyot) va boshqa koʻpgina fanlar rivojlandi. Bu davrda butun dunyoga tanilgan Xorazmiy, Fargʻoniy, Ibn Sino, Ibn Roʻshd, Yusuf Xos

Hojib, Nizomulmulk va boshqa ko‘plabmutafakkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida muhim iqtisodiy g‘oyalar ham o‘z aksini topgan. Sharq uyg‘onishi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik sirlarini bayon etganlar. Ularning ko‘plari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Q‘rta asrda ilg‘or iqtisodiy fikrlarni ilgari surgan buyuk mutafakkirlardan biri, Aristotelning izdoshi, uning asarlarini tahlil qilgan «ikkinchi muallim» Abu Nasr Forobiy (870-950) hisoblanadi. U ko‘p qirrali olim bo‘lib, o‘z bilimini oshirish yo‘lida tinmay mehnat qilgan, qaysi yurtida mashhur olim borligini eshitishi bilan suhbatlashib, undan saboq olish uchun yo‘lga chiqqan. Forobiy bir asarni bir marta o‘qib tushunolmasa, uni qayta-qayta o‘qirdi. Aristotelning «Jon haqida» asarining Forobiy o‘qigan nusxasi topilgan bo‘lib, kitob chetiga uning tomonidan «Men bu kitobni yuz marta o‘qidim», boshqa bir kitobda esa «Bu kitobni qirq marta o‘qidim, lekin yana o‘qishim kerak», deb yozilgan.

Forobiy Aristotel asarlarini o‘qib-o‘rganish bilan birga ularga sharhlar ham yozgan. Buyuk alloma Ibn Sino Aristotelning «Metafizika» asarini Forobiy yozgan sharhlar yordami bilangina to‘liq tushunganligi haqida yozgan. Forobiy bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan moddiy ehtiyojlar to‘g‘risida ta’limot yaratdi. Uning fikricha odamlarning ehtiyoji jamiyat shakllanishining asosiy sababidir. «Tabiatan har bir odam shunday yaralganki, u yashashi va kamol topishi uchun ko‘p narsalarga ehtiyoj sezadi. Ularni u bir o‘zi topa olmaydi va ularga erishish uchun kishilar jamoasiga muhtoj bo‘ladiki, uning har biri u ehtiyoj sezayotgan narsalardan biron-birini beradi. Bunda har bir odam boshqalarga nisbatan xuddi shunday holatda bo‘ladi».

Xulosa

Buyuk Ipak yo‘li insoniyat tarixidagi eng muhim savdo va madaniy yo‘llardan biri bo‘lib, u Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlagan. U nafaqat savdo, balki madaniyat, fan, din va ijtimoiy hayotning rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan almashinuvlar hozirgi zamonaviy dunyoning shakllanishi. Tarixiy va hozirgi ma’lumotlarga ko‘ra bu hudud, yer, suv, iqlim, tabiati, geografik o‘rni,

qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi jihatidan ajralib turgan. Aholining mehnatsevarligi, mirishkorligi, bunyodkorligi, kasb-hunarga mehr qo'yganligi va ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etgan. Hudud zaminida turli-tuman boyliklar, ayniqsa, oltin, kumush, boshqa rangli metallar va javohirlarning mavjudligi hamda seroblighi shu soha hunarmandchiligi rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli bilim, ilm makoni bo'lgan kitob savdo-sotig'i yetakchi o'rinni egallagan. Hozirgi davrda ko'plab taniqli mutafakkirlarimizning asarlari xorijiy davlati kutubxonalaridan topilmoqda va o'z vatani O'zbekistonga qaytarilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, o'z davrida kitob savdosi Buyuk ipak yo'lining asosiy faoliyatidan biri bo'lgan hamda bu yerdan chetga ko'plab ilm va san'at asarlari chiqarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, I. (2011). O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdidlar, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston.
2. Sodiqov, A. (2021). Buyuk Ipak Yo'li va O'zbekiston. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Ismoilov, R., Juraev, S. (2016). O'zbekistonning geostrategik o'rni va iqtisodiy rivojlanish perspektivalari. Toshkent: Sharq.
4. Abdurahmonov, K. (2018). Markaziy Osiyo savdo yo'llari tarixi. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Mirziyoyev, S. (2019). Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Nashriyoti.
6. Nazarov, A. (2019). Buyuk Ipak Yo'lining zamonaviy ko'rinishi va O'zbekiston. Toshkent: Bilim va taraqqiyot.
7. To'raqulov, S. (2020). O'zbekiston iqtisodiyoti: tarix va bugun. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

8. Raximov, T. A., Ziyamuhamedov, H. (2022). O‘zbekistonning turizm salohiyati va uning iqtisodiyotdagi o‘rni. Toshkent: Turizm va sport.